

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil 14 avgustdagi № IXT – 242 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030 yilgacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/ bo'lim	1 Stomatologiya		
O'quv dastur nomi	ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA		
O'qish turi	Ixtisoslashtirish		
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Prof. Xaydarov A.M., ass.Shamsiyev F.X.		
Siklning umumiy soati	864 kredit		
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar			
			
T.f.d. prof. Xaydarov A.M.		Ass.Shamsiyev F.X	
Maqsad	Ortopedik stomatologiyada aseptika va antiseptika qoidalarini, asboblarni sterilizasiya qilish usullarini, sterilizasiya sifatini aniqlash ko'rsatkichlarini, ortoped-stomatolog uchun himoya vositalarini; tish qattiq to'qimasining tuzilishi, kariyes va nokariyes kasalliklarni etiopatogenezi, tasnifi, klinikasi, qiyosiy tashxisi, davolash va profilaktikasini ; tish katorlari kisman nuksonlari etiologiyasi va patogenezi? tashxisoti,qiyosiy tashxisi, davolash va profilaktika choralarini; parodont kasalligi etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, qiyosiy tashxisi, davolash va profilaktikasini o'rgatish maqsadida tuzilgan.		
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	boshlang'ich yoki qo'shimcha mutaxassislik (tiklanish uchun, maqsadli) bo'yicha qayta tayyorlanish huquqi O'zR SSVning (№170, №174, №202, №204, №210) me'yoriy hujjatlariga muvofiq stajirovka, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisosga ega vrach stomatologlar		
Sikl vazifalari	- stomatologik kasalliklar epidemiologiyasi,		

	etiologiyasi, patogenezi to'g'risidagi bilimlarni zamonaviy darajada rivojlantirish; - stomatologik kasalliklarga yondashib keluvchi patologik holatlarni tashxislash usullarini ishlatish bo'yicha bilimlarni rivojlantirish; - Ortopedik stomatologiya amaliyotida ishlatiluvchi tashhislash va davolash tadbirlarini yetarli hajmini mustaqil aniqlashni rivojlantirish; - Ortoped - stomatologning kundalik amaliyotida ishlatiluvchi zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilishni o'rgatish; - shoshilinch holatlarda zamonaviy darajada yuqori malakali yordam ko'rsatishni rivojlantirish; - stomatologik kasalliklarini profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirishni o'rgatish; - tish protezlari tayyorlashning zamonaviy usullari va ashyolari va texnologiyalarini o'rgatish;
Sikl tarkibi	1.Modul. Ma'naviyat va ma'rifat. Normativ xujjatlar. 2.Modul. Chaynov appartining anatomiyasi va biomexanikasi. 3.Modul. Ortopedik stomatologiyada tekshirish usullari. 4.Modul. Ortopedik stomatologiyada ishlatiladigan xom – ashyolar. 5.Modul. Stomatologiyada og'riqsizlantirish/ 6. Modul. Tij toj qismi nuqsonlari va ularni ortopedik davolash. 7.Modul. Tish qatorlari nuqsonlari va ularni ortopedik davolash. 8.Modul. Tishlarning patologik yedirilishi va uni ortopedik davolash usullari. 9.Modul. Parodont kasalliklari. 10.modul. To'la tishsizlik. Ortopedik davolash usullari. 11.Modul. Tish qatorlarining ikkilamchi o'zgarish holatlarini ortopedik davolash usullari. 12.Modul. Chakka-pastki jag' bo'g'imi kasalliklari. Klinikasi. Tashxis. Davolash usullari. 13.modul. Implantologiya asoslari. Implantasiya haqida tushuncha.Tish implantasiyasiga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Implantasiya uchun og'iz bo'shlig'ini tayyorlash. Tish imlantasiyasi uchun bemorlarni tekshirish. Implantasiya va implantlar turlari. Operasiyadan keyin bemorlarni parvarishlash.va og'iz bo'shlig'i gigiyenasi. 14.Modul. Yuz-jag' ortopediyasi. 15.Modul. Terapevtik stomatologiya asoslari.

	16.Modul. Ambulator jarrohlik stomatologiyasi asoslari. Tish olish operatsiyasi, ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar
O'qish bazalari: Asosiy: "Shaxar tez tibbiy yordam klinik shifoxonasi" Foziltepa ko'chasi 40 uy 	Qo'shimcha: "Medical Dentium and Implantium" MChJ Yunusobod tumai, Iftixor kochasi.